



TO'QIMACHILIK KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY STRATEGIK BOSHQARUV G'OYALARI

Saidova Kamola Xoshimovna

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

ORCID: 0000-0002-3940-0154

Annotatsiya. Mazkur maqolada to'qimachilik korxonalarini strategik boshqaruvni takomillashtirish hamda xizmatni tashkil etish, boshqarish uchun texnologiya, brend, ishlab chiqilgan tizim va xodimlarning professionallik darajasini tahlili, sanoatda raqobatbardoshlikni oshirishning eng samarali usullaridan biri strategik boshqaruvining ijobiy tomonlari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: strategik boshqaruv, strategik nazorat, qiymat modeli, modernizatsiya, strategic rejalashtirish, eksport, zamonaviy menejment, resurs konsepsiyasi, ishlab chiqarish quvvati, iqtisodiy samaradorlik, operativ boshqaruv.

СОВРЕМЕННЫЕ ИДЕИ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ В РАЗВИТИИ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Саидова Камола Хошимовна

Ташкентский институт текстильной

и легкой промышленности

Аннотация. В данной статье освещены положительные стороны стратегического управления текстильными предприятиями, одного из наиболее эффективных методов повышения конкурентоспособности в отрасли, проведен анализ технологии, бренда, развитой системы и уровня профессионализма текстильных предприятий по организации обслуживания и управления.

Ключевые слова: стратегический менеджмент, стратегический контроль, модель ценности, модернизация, стратегическое планирование, экспорт, современный менеджмент, ресурсная концепция, производственная мощность, экономическая эффективность, оперативное управление.

MODERN STRATEGIC MANAGEMENT IDEAS IN THE DEVELOPMENT OF TEXTILE ENTERPRISES

Saidova Kamola Khoshimovna

Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Annotation. This article highlights the positive aspects of strategic management of textile enterprises, one of the most effective methods of increasing competitiveness in the industry, and analyzes the technology, brand, developed system and level of professionalism of textile enterprises in organizing service and management.

Key words: strategic management, strategic control, value model, modernization, strategic planning, export, modern management, resource concept, production capacity, economic efficiency, operational management.

Kirish.

XX asrning 90-yillari boshidan boshlab raqobat sharoitida o'ziga xos tavsifga ega holda korxonaning ustunligini aniqlash uchun oldingilariga solishtirilganda hamda amaliy mexanizmlar va manbalarni tadqiq qilish uchun ko'proq mos keladigan strategik boshqaruv sohasida korxonaning rivojlanishida resurs konsepsiyasi ustunlik qila boshlaydi. Korxonalar rivojlanishining strategik boshqaruvning tarafdorlari Dj.Barni, B.Vernerfelt, Dj.Grant, K.Kurt, G.Minsberg, K.Praxalad, D.Tis, G.Xemellar hisoblaniladi (Arnawa & other, 2019). Fikrimizcha, har qanday korxonalar ichki resurslardan foydalanishda rejalashtirish usullarini qo'llash qobiliyati va imkoniyatiga ega bo'lib, talabga hamda raqobatchilar, ta'minotchilar faoliyatiga va ma'lum darajada sanoat standartlari ta'sir etuvchi noyob va o'ziga xos qobiliyatlarini sun'iy ravishda shakllantiradi. Sotish yoki xizmatni tashkil etish, boshqarish uchun texnologiya, brend, ishlab chiqilgan tizim va xodimlarning professionallik darajasini bu kabi noyob resurslar sirasiga mumkin (Weeks and Plessis, 2011).

Adabiyotlar sharhi.

"Strategik boshqaruv" atamasiga berilgan ta'riflarining xilma-xilligiga qaramay, bu ta'rifning mohiyati haqida umumiy fikr hali shakllanmagan. Ushbu ta'riflarni o'rganish asosida, shuni qayd etish lozimki, "strategik boshqarish" atamasi mazmuniga turli yondashuvlar amalga oshirilishida barcha tadqiqotchilar tomonidan tashqi muhitga mo'ljal, tashqi va ichki muhit holatiga qarab o'zgarishlarni nazarda tutgan holda boshqaruv qarorlari moslashuvchanligi va maqsadlar qo'yilishining ahamiyati kabilar qayd etib o'tilgan (Родионова, 2013). To'qimachilik korxonalarida boshqaruv dastaklarini qo'llash maqsadlari miqdor va sifat ko'rsatkichlariga bo'linadi va bu maqsadlarning har biri erishish vaqtiga bog'liqdir. strategik maqsadlarni amalga oshirish muhim ekanligini, uni amalga oshirish ko'proq vaqtni talab qilishini hamda natijalar xolisiga baholanishi va ushbu baholash natijalari kelgusi strategik maqsadlarga asos bo'lishi zaririyatini inobatga olgan holda boshqaruv dastaklaridan to'qimachilik korxonasi uchun eng samaralisi sifatida balanslashtirilgan ko'rsatkichlar tizimini tanlash taklifi berilgan. Ushbu boshqaruv dastagini amaliyotga qo'llash to'qimachilik korxonalarini strategik boshqarishda nafaqat maqsadlarni shakllantirish, balki strategiyani amalga oshirish natijalarini baholash imkonini ham beradi (Akramov, 2021). Strategiya atamasi strategiya so'zidan olingan bo'lib, yunoncha urush san'ati va fani ma'nosini bildiradi. Qadimgi Yunonistonda prezident, hukmdor, sarkarda ma'nolarida qo'llanilgan. Harbiy adabiyotlarda "strategiya" so'zi mavjud resurslardan eng samarali va tejimli foydalanib, minimal yo'qotish, xarajat va zarar bilan g'alabaga erishish deb ta'riflanadi. "Strategiya" so'zi 19-asrda bozor kuchlarini boshqarish va shakllantirish istiqboli sifatida ko'rilgan, 20-asrda biznes sohasida tez-tez ishlatila boshlandi va hozirgi kunga qadar raqobatbardoshlik doirasida ko'rib chiqildi. Drukerning so'zlariga ko'ra, strategiyaning ma'nosi - bu ishning missiyasini barcha jihatlar bilan ko'rib chiqish va ilgari qabul qilingan qarorlar kelajakdagi natijalarni belgilangan maqsadlarga muvofiq berishini ta'minlash tushunchalarini izohlaydi (Pathan, 2013). Chandler "Bizning ishimiz nima va nima bo'lishi kerak?" degan savol asosida strategiyani uzoq muddatli maqsad va vazifalarni aniqlash, bu maqsadlarga erishish va maqsadlarni taqsimlash sifatida belgilagan strategik boshqaruv, albatta, ma'lum bir qaror va harakatlar majmuiga ega, lekin har bir tadbir (loyiha) uchun bu qaror va harakatlar sof individual tavsifga ega bo'lishi lozim degan g'oyani izohlagan (Kim, 2019).

Kennet Endryu va boshqalar (1965) Drucker va Chandlerning qarashlarini ularning qarashlari bilan birlashtirdilar, ya'ni: strategiya ustuvorliklar, ham maqsadlar, hamda ushbu maqsadlarga erishish strategiyasi va siyosatining namunasi. Bu ish nima ekanligini va u nima bo'lishi kerakligini, nima ekanligini va qanday bo'lishi kerakligini belgilaydi; strategiya - bu o'zgaruvchan dunyoda ishlashga majbur bo'lgan kompaniyaga o'z maqsadlariga minimal zarar bilan erishish imkonini beradigan boshqa kontseptsiyaga muvofiq qoidalar va strategiyalar to'plami deb takidlashdi. Jeffs strategik boshqaruvni "tashkiliy maqsadlarni aniqlash va ko'rib

chiqish uchun strategiya mexanizmi” deb ta’riflagan (Pathan, 2013). Raqobat ustunligi birinchi o’rinda turgan bir paytda, strategiya kompaniyaning uzoq muddatli istiqbolini kafolatlash uchun raqobatdosh ustunlikka ega bo’lish niyatida o’z resurslari va ko’nikmalari bilan o’z strategik maqsadlariga erishishga harakat qiladigan vositalar va asosiy funktsiyalar sifatida belgilanadi. Raqobat ustunligini qo’lga kiritadigan va uni saqlab turadigan tashkilot, uni raqobatchilardan ajratib turadigan strategiyani yaratish va amalga oshirish orqali mumkin bo’ladi. Strategiyani korxonaga ekologik va ijtimoiy ko’rsatkichlar va iqtisodiy ko’rsatkichlarni yetkazib berish usuli sifatida ko’rib chiqish kerak degan fikr va mulohazalarni keltirib o’tishgan (Nyoro & other 2015).

XX asrning 60-80 yillarida g’arbda zamonaviy menejment rivojlana boshladi. Sanoat korxonalarida strategik boshqaruvning yondashuvlari mohiyati ochib berilgan va modellarining ajralib turadigan jihatlari asoslangan. Istalgan modelda strategik boshqaruvni uch bosqichdagi jarayoni ajratiladi: strategik rejalashtirish bosqichi (strategiyalar ishlab chiqish, strategik tahlil va tanlov); strategik tashkillashtirish bosqichi yoki tanlash strategiyaga mos ravishda tashkiliy tizimni sozlash (strategiyani tatbiq etish, amalga oshirish); strategik nazorat va tartibga solish bosqichi (strategiyani baholash, ishontirish va ijroni baholash). Bizning fikrimizcha, mavjud xarajat modellari orasida to’qimachilik korxonasining tashqi va ichki muhit omillarining butun majmuini hisobga olishga to’la imkon beruvchi hech qanday model yo’q, ammo qayd etilgan kamchiliklarga qaramay, ulardan eng samaralisi – iqtisodiy qo’shilgan qiymat modeli bo’lib, uni takomillashtirish talab etiladi. Bu jarayonda esa, rivojlangan mamlakatlar amaliyotida keng qo’llanilayotgan korxonalar faoliyati samaradorligini boshqarish usullaridan foydalanish zarur bo’ladi (Eller and Naveiro, 2016).

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolani tahlil qismida va nazariy hamda amaliy qismlarini yoritishda an’anaviy tadqiqot usullaridan, taqqoslama usullardan, didulsiya usullaridan keng foydalanilgan. Shuningdek, to’qimachilik korxonalarini rivojlantirishda zamonaviy strategik boshqaruv strategiyalarining ahamiyati, ularning qo’qimachilik sanoatidagi tadbig’i yoritishda va nazariy tahlil qilishda induksiya va didulsiya usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalarning muhokamasi.


Hozirgi paytda Respublikamiz to’qimachilik sanoatining asosiy qismi “O’zbekto’qimachilik sanoati” uyushmasiga jamlangan bo’lib, Respublika bo’yicha 2022-yilning 1-yanvar holatiga 7 323 ta to’qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan xo’jalik subyektlari faoliyat ko’rsatgan, shundan 11 foizi to’qimachilik, 89 foizi tikuv-trikotaj buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar hisoblanadi [9]. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz to’qimachilik sanoati tubdan o’zgardi. Agar 1991-yilda respublikada faqat 4 ta yirik to’qimachilik kompleksi mavjud 13 bo’lsa, mustaqillik yillarida juda katta ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo’lgan korxonalar yaratildi.

Statistik ma’lumotlarni tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, 2016-2021-yillarda mahsulot turlari bo’yicha mavjud ishlab chiqarish quvvatlari quyidagicha bo’lgan: ip kalava ishlab chiqarish quvvati 2016-yilda 367 ming tonnani tashkil etgan bo’lsa, ushbu ko’rsatkich 2021-yilda 921 ming tonnani tashkil etgan yoki 2,51 barobarga oshgan; gazlama ishlab chiqarish quvvati 2016-yilda 246 mln. kv.metrni tashkil etgan bo’lsa, ushbu ko’rsatkich 2021-yilda 860 mln. kv.metrni tashkil etgan yoki 3,45 barobarga oshgan; trikotaj mato ishlab chiqarish quvvati 2016-yilda 51 ming tonnani tashkil etgan bo’lsa, ushbu ko’rsatkich 2021-yilda 298 ming tonnani tashkil etgan yoki 5,84 barobarga oshgan; paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish quvvati 2016-yilda 51 mln.juftni tashkil etgan bo’lsa, ushbu ko’rsatkich 2021-yilda 457 mln.juftni tashkil etgan yoki 8,96 barobarga oshgan; trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish quvvati 2016-yilda 204 mln. donani tashkil etgan bo’lsa, ushbu ko’rsatkich 2021-yilda 1308 mln. donani tashkil etgan yoki 6,41 barobarga oshgan; tayyor tikuvchilik mahsulotlari ishlab

chiqarish quvvati 2016-yilda 83 mln. donani tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2021-yilda 920 mln. donani tashkil etgan yoki 11,22 barobarga oshgan. Tarmoqning mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2016-yilda 12,7 trln. so'mni tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2021-yilga kelib 62,0 trln. so'mni tashkil etgan yoki o'rganilayotgan davrda uning hajmi 4,88 barobarga oshishi kuzatilgan. Shuning, o'rganilayotgan davrda tarmoqning eksport hajmi 2021-yilda 2016-yilga nisbatan 4,11 barobarga oshib, 2801 mln. AQSH dollarini tashkil etgan⁷⁹.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirishda eng muhim jihatlardan biri, respublika aholisi uchun yangi ish o'rinlarining yaratilishi sanaladi. Tarmoq miqyosida birgina 2021-yilda 401 ming yangi ish o'rinlari yaratilgan. Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, "SANAM" MCHJda 2017-yilda fond qaytimi 10,28 so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 36,13 so'mni tashkil etgan. Bunga asosiy sabab – 2021-yilda korxonada modernizatsiya ishlari olib borilgan. "BETLIS TEKSTIL" MCHJda ushbu ko'rsatkichning o'rganilayotgan davrda qariyb 4 barobarga pasayishi ro'y bergan. Bunga asosiy sabab – 2021 yilda korxonada modernizatsiya ishlari olib borilganligi natijasida barcha uskunalar deyarli 100 % zamonaviy SULFET Turkiya mashinalari bilan almashtirilgan. "FULL COTTON" MCHJda esa ushbu ko'rsatkich o'rganilayotgan davrda 53,14 so'mdan 10,78 so'mgacha kamaygan. Mehnat unumdorligi "SANAM" MCHJda 2017-yilda har bir ishchiga 4790 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 63,1 % ga oshib, kishi boshiga 15851 ming so'mga yetgan⁸⁰. Bu o'sishga fondlarning yangilanishi hisobidan erishilgan.

Strategik boshqaruv asosan ma'lum bosqichlarni qamrab oladi (1-rasm). Ko'plab tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan strategik boshqaruvning umumiy qabul qilingan modeli strategiyani amalga oshirishning amalda belgilangan ko'rsatkichlarining rejada tutilgan topshiriqlarni bajarilganlik darajasini nazorat qilishni nazarda tutadi va bu esa, lozim hollarda bozor muhiti o'zgarishlarini inobatga olgan holda strategik rejaga tegishli qayta o'zgartirishlar qilishga imkoniyat bermaydi. Ikkinchi bosqich hisoblanadigan SWOT tahlil – strategik rejalashtirish usuli bo'lib, u tashkilotning ichki va tashqi muhiti omillarini aniqlash va ularni to'rt toifaga bo'lishdan iboratdir. SWOT tahlili strategik boshqaruvning mavjud vaziyatini dastlabki baholashda samarali bo'ladi, lekin u strategiyani ishlab chiqish yoki dinamikani sifatli tahlil qilish o'rnini bosa olmaydi.



1-rasm. Strategik boshqaruvning amalga oshirish bosqichlar

Bizning fikrimizcha, "strategik rejani amalga oshirish operativ boshqaruvning vazifasi doirasiga kirib, "strategiyani amalga oshirishni baholash va nazorat qilish" bosqichining vazifalari "Tezkor rejalashtirish maqsadlariga erishish tahlili" bosqichiga xos bo'lgan vazifalar tomonidan obyektiv ravishda amalga oshiriladi. Maqsadlarga erishishni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilishdan olingan xulosalar strategik rejani qayta tuzish va unga tegishli o'zgartirishlar kiritish bo'yicha tavsiyalar bo'lib xizmat qilmasligi kerak. Ular asosida faqat tashkiliy chora-tadbirlar va rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga erishishning moddiy-texnika vositalari samaradorligini oshirish sharoitida korxonaning operativ rivojlanish rejasiga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha tavsiyalar berilishi kerak".

⁷⁹ <https://review.uz/uz/post/infografika-proizvodstvo-tekstilnoy-produkcii-uzbekistana-v-2016-2021-gg>

⁸⁰ <https://www.interaktiv.oak.uz/avtoreferat/3a07933f01.file>

Shu bilan birga, to'qimachilik korxonasi rivojlanishining strategik rejalarini shakllantirish tashqi va ichki omillar o'zgarishlarini bashoratlashga asoslanganligi bois, biz strategik boshqarish uchinchi bosqichi (tuzatishning qaytma aloqasi) sifatida "Strategik reja asoslanganligini baholash" bosqichini taklif etamiz. Ushbu bosqichda bashorat qilingan va joriy holatlarning to'qimachilik korxonasi tashqi va ichki muhiti omillariga mosligini tahlil qilish, keyinchalik strategik rejaga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish amalga oshirilishi lozim. Yuqoridagilarning barchasi to'qimachilik korxonasining umuman strategik boshqarish mexanizmi va xususan strategik rejalashtirish bosqichining takomillashtirilgan tarkibiy-mantiqiy sxemasini taklif etish imkonini beradi.

Sanoat rivojlanishining hozirgi holati raqobatning keskin kuchayishi oqibatida salbiy vaziyatni o'zgartirish uchun yangi mexanizmlarni izlashni talab qiladi. Ayni paytda, sanoatda raqobatbardoshlikni oshirishning eng samarali usullaridan biri strategik boshqaruv sanaladi. Bizningcha, strategik boshqaruv – bu boshqaruvning bir turi bo'lib, uning usul va vositalari iqtisodiy tizimlarning uzoq muddatli rivojlanishiga qaratilgan hamda tashqi va ichki muhitdagi o'zgarishlarga moslashuvchan javob beradi, bu esa, sanoat korxonasining o'z maqsadlariga erishish jarayonida muvaffaqiyatsizlik xavfini kamaytirishga yordam beradi (Huang, Shih & other 2011). Fikrimizcha, to'qimachilik korxonalarini yanada rivojlantirish uchun strategik boshqaruv mexanizmidan foydalanish zarurligi shubhasizdir. Biroq, to'qimachilik korxonalarida bugungi kunda strategik boshqaruvni samarali qo'llash uchun yaxshi rivojlangan mexanizm mavjud emas, chunki to'qimachilik korxonalarini faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan samarali tizim hanuzgacha ishlab chiqilmagan.

Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, "SANAM" MCHJda 2017-yilda fond qaytimi 10,28 so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 36,13 so'mni tashkil etgan. Bunga asosiy sabab – 2021-yilda korxonada modernizatsiya ishlari olib borilgan. "BETLIS TEKSTIL" MCHJda ushbu ko'rsatkichning o'rganilayotgan davrda qariyb 4 barobarga pasayishi ro'y bergan. Bunga asosiy sabab – 2021 yilda korxonada modernizatsiya ishlari olib borilganligi natijasida barcha uskunalari deyarli 100 % zamonaviy SULFET Turkiya mashinalari bilan almashtirilgan. "FULL COTTON" MCHJda esa ushbu ko'rsatkich o'rganilayotgan davrda 53,14 so'mdan 10,78 so'mgacha kamaygan. Mehnat unumdorligi "SANAM" MCHJda 2017-yilda hap bir ishchiga 4790 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 63,1 % ga oshib, kishi boshiga 15851 ming so'mga yetgan. Bu o'sishga fondlarning yangilanishi hisobidan erishilgan. "BETLIS TEKSTIL" MCHJda ushbu ko'rsatkichning o'rganilayotgan davrda qariyb 1,25 barobarga oshishi ro'y bergan. Bunga asosiy sabab fondlarning yangilanishi sanaladi. "FULL COTTON" MCHJda esa ushbu ko'rsatkich o'rganilayotgan davrda kishi boshiga 80527 ming so'mdan 181228 ming so'mgacha oshgan.

Bizning fikrimizcha, to'qimachilik korxonalarini strategik boshqaruv amaliyotida nisbatan o'rtacha natijalarga erishishga mo'ljallangan maqsadlarni tavsiflovchi rejadagi ko'rsatkichlar bajarilishi holatini tahlil qilishdagi "Tezkor rejalashtirish maqsadlariga erishish tahlili" bosqichi strategik rejaning "Strategiyani amalga oshirishni baholash va nazorat qilish" bosqichining vazifalarini amalga oshiradi. Zeroki, ushbu tahlil natijalari strategik rejani qayta tuzish va unga tegishli o'zgartirishlar kiritish bo'yicha tavsiyalar bo'lib xizmat qilmasligi kepak. Shu boisdan, strategik boshqarish jarayonining uchinchi bosqichi (tuzatishning qaytma aloqasi) sifatida "strategik reja asoslanganligini baholash" bosqichi taklif etiladi. Tadqiqot jarayonida to'qimachilik korxonasining umuman strategik boshqarish mexanizmi va xususan 26 strategik rejalashtirish bosqichining takomillashtirilgan tapkibiy-mantiqiy sxemasi ishlab chiqilgan.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot doirasida jahon va Respublikamiz olimlarining iqtisodiyotda muhim o'rin egallagan to'qimachilik sektori va bu sohada faoliyat yurituvchi korxonalar ko'rib chiqildi. Denizli va uning atrofidagilarning fikricha iqtisodiy tuzilma uchun to'qimachilik ishlab

chiqarish va sotish har doim birinchi o'ringda turadi. Shuningdek, strategik boshqaruv ma'lum bir qaror va harakatlar majmuiga egaligi, ammo har bir loyiha uchun bu qaror va harakatlar sof individual tavsifga ega bo'lishi lozimligini tahlil natijasida ma'lum bo'ldi. Mavjud xarajat modellari orasida to'qimachilik korxonasi tashqi va ichki muhit omillarining butun majmuini hisobga olishga to'la imkon beruvchi hech qanday model yo'q, ammo qayd etilgan kamchiliklarga qaramay, ulardan eng samaralisi – iqtisodiy qo'shilgan qiymat modeli bo'lib, uni takomillashtirish tafsifiy etiladi. Buning natijasida esa, to'qimachilik korxonalarini strategik boshqaruv amaliyotida nisbatan o'rtacha natijalarga erishishga mo'ljallangan maqsadlarni tavsiflovchi rejadagi ko'rsatkichlar bajarilishi holatini tahlil qilishdagi "Tezkor rejalashtirish maqsadlariga erishish tahlili" bosqichi strategik rejaning "Strategiyani amalga oshirishni baholash va nazorat qilish" bosqichining vazifalarini amalga oshirish muhim masalalardan biridir.

Adabiyotlar / Лумепамыпа / Reference:

Akramov N. (2021) "To'qimachilik korxonalarida strategik boshqaruv texnologiyasini takomillashtirish", *Iqtisodiyot va ta'lim*, 6-son, 185-188 bb.

Arnawa, I.K., Sapanca, P.L.Y., Martini, L.K.B., Udayana, I.G.B., Suryasa, W. (2019). *Food security program towards community food consumption. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 11(2), 1198- 1210.

Eller and R. M. Naveiro, (2016) "Technological trends on the functional textiles sector," in *IAMOT 2016 - 25th International Association for Management of Technology Conference, Proceedings: Technology - Future Thinking*.

Huang C., Shih H.Y., and Liu P.Y., (2011) "Environment effects on patterns of network change: The flat panel display industry network evolution," in *PICMET: Portland International Center for Management of Engineering and Technology, Proceedings*.

Kim S.K. (2019) "Developing the Strategies for AI Products based on the Technology Decomposition Framework," in *IEEE International Conference on Industrial Engineering and Engineering Management*, doi: 10.1109/IEEM.2018.8607319.

Nyoro M., Kamau J.W., Wanyembi G.W., Titus W.S., and Dinda W.A., (2015) "A Literature Review of Tam in e-Commerce Adoption" *Int. J. Appl. or Innov. Eng. Manag.*

Pathan A.D. (2013) "Contributions for Improving Textile Supply Chain Management in Pakistan TT - Contributos para uma melhor Gestao da Cadeia de Abastecimento Têxtil no Paquistão".

Weeks and J. Du Plessis, (2011) "Servitization: Developing a business model to translate corporate strategy into strategic projects," in *PICMET: Portland International Center for Management of Engineering and Technology, Proceedings*.

Родионова В.Н. (2013) *Стратегический менеджмент: учеб. пособие / В. Н.Родионова. – 2-е изд., испр. и перераб. – М.: РИОР: ИНФРА, – 78 с.*